

MIKROINSULT: SIMPTOMLARI, SABABLARI, DAVOSI VA REABILITATSION DAVR

*Respublika o'rta tibbiyot farmasevtika xodimlari malakasini oshirish markazi Termiz filiali
o'qituvchisi.*

Zayniddinov. M

Fillial direktori

Safarov. Z

Kirish. "Mikroinsult" atamasi tibbiyot sohasida mavjud emas, ammo bunday patologik holatda ko'pgina shifokorlar amaliyotda "mikroinsult" atamasidan foydalanishadi. Mikroinsult atamasi deganda odatda o'tib ketuvchi (tranzitor) bosh miya qon aylanishi buzilish holati tushuniladi. Insultda kuzatiladigan simptomlar 1 sutka davomida o'z-o'zidan o'tib ketadi. Ba'zida mikroinsult belgilari qisqa muddatlar ichida, bir necha daqiqalar davom etadi, bunda bemor hatto bosh miyada qon aylanish buzilishini o'zida sezmasligi ham mumkin.

Shifokor konsultatsiyasi

- Nevropatolog konsultatsiyasi

Diagnostika

- Elektroansefalografiya (EEG)
- Elektroneuromiyografiya (ENMG)

Asosiy qism. Agar belgilar 24 soatdan uzoq davom etsa va nevrologik simptomlar bilan yuzaga chiqsa, bemorga "insult" tashxisi qo'yiladi. Bosh miyada qon aylanishi buzilishi natijasida miyada o'choqli o'zgarishlar kelib chiqadi. Patologik jarayon bosh miyaning kichik hajmdagi ma'lum bir sohasidagina kechadi va klassik insultdagi kabi belgilar namoyon bo'lmaydi. O'tkazib yuborilgan mikroinsult faqatgina bosh miya to'qimalari tekshiruvlaridagina aniqlanadi.

Mikroinsult kelib chiqish sabablari

Ko'p holatlarda mikroinsult kelib chiqishiga sabab bosh miya qon tomirlarida aterosklerotik blyashkalar to'planishidir. Ular miya to'qimalarini oziqlantiruvchi arteriyalarda qon oqimini to'xtatib qo'yadi. Bosh miyaning alohida qismlari gipoksiyadan zararlanadi va kichik ko'rinishdagi patologik o'zgarishlar shakllanadi.

Ko'p hollarda mikroinsult boshqa bir somatik kasalliklar bilan birga keladi. Masalan, gipertoniya aziyat chekuvchi insonlarda, ayniqsa gipertonik krizlarda bosh miyada kichik sohalarda qon quyilishlar sodir bo'lishi mumkin (gemorragiya). Insult belgilari miokard infarkti belgilari bilan birga kelib tashxis qo'yishda qiyinchilik tug'diradi. Tibbiyotda bosh miya infarkti degan tushuncha ham bor. Bunda nevrologik belgilar kuchli yuzaga chiqadi, aniq tashxis elektrokardiogramma yordamida qo'yiladi. Yurak ritmi o'zgarishi fonida ishemiya ko'rinishdagi mikroinsult rivojlanadi. Chap bo'lmacha aritmiyasi natijasida mayda tromblar hosil bo'ladi va kichik qon tomirlarda qon oqimini to'xtatib



qo'yadi. Bundan tashqari yurak ritmi o'zgarishi natijasida qon bosimi pasayishi mumkin. Bu ham bosh miyada qon aylanishiga salbiy ta'sir etadi.

Mikroinsult quyidagi insonlarda rivojlanish ehtimoli yuqori bo'ladi:

- Vaskulit (qon tomirlar devorining yallig'lanishi);
- Revmatizm;
- Qandli diabet.

Sanab o'tilgan holatlarning barchasida qon tomirlarda patologik o'zgarishlar kuzatiladi.

Diqqat! Xavf guruhiga tana vazni ortiqcha bo'lgan insonlar, chekuvchilar, spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchilar ham kiradi. Mikroinsult rivojlanishi gipodinamiya holatida ham yuqori bo'ladi (kamharakat hayot tarzi).

Mikroinsult belgilari

Mikroinsultda rivojlanadigan belgilar har doim ham spetsifik ko'rinishda namoyon bo'lmaydi. Ko'pchilik bemorlar belgilarni atmosfera bosimining o'zgarishi, ob-havoning o'zgarishi, jismoniy yoki psixiemoatsional holati va surunkali charchash hissi bilan adashtiradilar.

Mikroinsultning ilk belgilariga quyidagilar kiradi:

- Bosh aylanishi;
- Ko'z oldida qora dog'lar paydo bo'lishi;
- Har kuchdagi bosh og'riqlar;
- Umumiy holsizlik va charchash hissi;
- Ko'ngil aynishi.

Mikroinsult nevrologik belgilariga quyidagilar kiradi:

- Yorug'lik va baland tovushlarga sezuvchanlikning ortib ketishi;
- Uyquchanlik;
- Ko'ruv o'tkirligining vaqtinchalik pasayishi;
- Yuz yoki oyoq, qo'llarning uvishishi;
- Nutqdagi kichik muammolar;
- Harakat koordinatsiyasidagi kamchiliklar (qadam tashlashda muvozanatning biroz buzilishi);

- Qon bosimining birdan ko'tarilib ketishi yoki tushib ketishi.

Mikroinsult belgilari ko'pincha erkaklarda yaqqol va aniq namoyon bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan belgilarning barchasi yuzaga chiqmasligi mumkin, ammo ulardan 4-5 tasi yuzaga chiqadigan bo'lsa, "mikroinsult" tashxisini qo'yish uchun yetarli bo'ladi. Bunday belgilar o'z-o'zidan bir necha soatlar davomida o'tib ketadi. Diqqat! Nevrologik belgilarning yuzaga chiqishi – bu jiddiy signal bo'lib hisoblanadi. 50 % dan ortiq mikroinsult o'tkazgan bemorlarda keyinchalik bosh miyada katta hajmli zararlanishlar shakllanadi, ya'ni insult diagnozi qo'yiladi. Ayollarda mikroinsult ilk belgilari atipik namoyon bo'lishi mumkin. 18-40 yoshdagi ayollarda bosh miyada qon aylanishi buzilish ehtimoli aynan shu yoshdagi erkaklarga nisbatan yuqori bo'ladi. Ayollarda mikroinsult so'zlayotgan vaqtda to'satdan to'xtab qolish yoki mavzuga aloqador bo'lmagan so'zlarni



ishlatish, buyumlarni o‘z-o‘zidan qimirlatish yoki kuchli hiqichoq tutishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday vaqtda bemor xuddi spirtli ichimlik qabul qilgan odam kabi ko‘rinishda bo‘ladi.

Mikroinsult davosi

Agar mikroinsult ilk belgilari namoyon bo‘layotganini sezsangiz zudlik bilan tez tibbiy yordamga murojaat qiling. Nevrologik belgilar insult rivojlanish ehtimolini oshiradi yoki infarkt kasalligidan dalolat beradi. Tez tibbiy yordam kelgunga qadar bemor tinch joyda bo‘lishi, boshining ostiga yostiq qo‘yish kerak bo‘ladi. Xonaga toza havo kirishini ta‘minlash zarur. Tor kiyimlar yechiladi yoki yoqalari ochiladi. Uy sharoitida oyoqlar issiq vanna qilinadi, bemorga tabiiy vositalardan tayyorlangan tinchlantiruvchi preparatlar beriladi (valeriana yoki boyarshnik ekstrakti). Bosh va bo‘yin sohasini yengil massaj qilish ham yaxshi samara beradi.

Mikroinsult aniqlanganda – unga sabab bo‘layotgan asosiy kasallik davolanadi, ya’ni kasallik bartaraf etilsa, bosh miyada qon aylanishni tiklasa bo‘ladi. Bemorlar to‘liq tibbiy tekshiruvdan o‘tadi. Ko‘rsatma bo‘yicha shifokorlar bemorga antiagregantlar (tromb hosil bo‘lishining oldini olish uchun), nootrop vositalar (bosh miyada moddalar almashinuvini yaxshilash uchun), vazodilatatorlar (qon tomirlarni kengaytirish uchun) va arterial qon bosimini pasaytiruvchi preparatlar buyurishi mumkin.

Xulosa. Mikroinsultdan so‘ng nima qilish kerak?

Mikroinsultdan so‘ng tamaki mahsulotlari chekish va spirtli ichimliklar ichishdan butkul voz kechish kerak. Ovqatlanish ratsioni, normal uyqu va ish tartibiga jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Agar mehnat faoliyatingiz doimiy jismoniy yoki ruhiy zo‘riqish bilan kechsa, ularni vaqti vaqti bilan almashtirib turing. Yil davomida kamida 2 marotaba nevropatolog ko‘rigidan o‘tish kerak bo‘ladi. O‘z vaqtida aniqlangan bosh miya qon aylanishining o‘tib ketuvchi shakli va uni to‘g‘ri bartaraf etish og‘ir asoratlar shakllanmasligining oldini oladi. Shifokor bemorlarga moddalar almashinuvini yaxshilaydigan, organizmni tozalaydigan vositalar buyuradi. Bir necha marotaba mikroinsult xurujlari qaytmas jarayonlarga olib kelishi mumkin, masalan aqliy zaiflik (demensiya). Shu sababli yuqorida sanab o‘tilgan belgilarni o‘zingizda yoki boshqa bir insonda kuzatsangiz, zudlik bilan shifokorlarga murojaat qiling. Zero, salomatlik — tuman boylik.

ADABIYOT:

X.A. Yunusova, Toshkent 2021.

O.S. Maxmudov,

I.K. Musabaev, SH.X. Xodjaev,

T.O. Daminov